

“BRB Lift” loyihasida ishtirok etish bo‘yicha SHARTNOMA (OMMAVIY OFERTA)

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu ommaviy oferta shartnomasi (bundan buyon – Shartnoma) O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, jumladan, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonun, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi qonun, “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi qonun, “Reklama to‘g‘risida”gi qonun va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan tashkil etilayotgan “BRB Lift” loyihasida ishtirok etish tartibini belgilaydi.

1.2. Shartnoma Bank – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (bundan buyon – Bank) va ushbu ofertani qabul qilayotgan, “BRB Lift” loyihasida ishtirok etish istagini bildirgan shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs vakili yoki startap jamoa a‘zosi; bundan buyon – Ishtirokchi) o‘rtasida elektron tarzda tuziladi.

1.3. Ushbu ommaviy oferta Bank tomonidan Telegram-bot va loyiha veb-saytida e‘lon qilinadi. Ishtirokchi tomonidan Telegram-botda “Shartnoma shartlari bilan tanishdim va roziman” tugmasini bosish hamda ariza shaklini to‘liq to‘ldirib yuborish mazkur ofertani to‘liq va so‘zsiz qabul qilish (aksept) hisoblanadi va Shartnoma elektron shaklda tuzilgan deb hisoblanadi.

1.4. Shartnoma “BRB Lift” loyihasi reglamenti (bundan buyon – Reglament) bilan birgalikda qo‘llaniladi. Reglament Bank tomonidan tasdiqlanib, loyiha veb-sayti va Telegram-botida e‘lon qilinadi. Ishtirokchi ofertani qabul qilish orqali Reglament shartlariga ham rozilik bildirgan hisoblanadi.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Bank ZO‘R TV telekanali bilan hamkorlikda “BRB Lift” nomli biznes-realiti shou loyihasini tashkil etadi. Loyiha doirasida kichik biznes, startaplar va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning biznes g‘oyalarini ommalashtirish va yakunda g‘olib loyihani 500 000 000 (besh yuz million) so‘m miqdoridagi grant bilan rag‘batlantirish nazarda tutiladi.

2.2. Ishtirokchi Shartnoma shartlariga muvofiq “BRB Lift” loyihasida ishtirok etish, o‘z biznes g‘oyasi, amaldagi biznesi yoki startap loyihasini taqdim etish hamda tanlovning belgilangan bosqichlaridan (online ariza, dastlabki saralash, kasting, mentorlar bilan ishlash, final bosqich va boshqalar) o‘tish uchun zarur ma‘lumot va hujjatlarni taqdim etishni o‘z zimmasiga oladi.

2.3. Mazkur Shartnoma tanlovda ishtirok etish shartlarini, tomonlarning huquq va majburiyatlarini, shuningdek Ishtirokchining tasviri, ovozi, firmaviy belgisi va boshqa materiallaridan foydalanish tartibini belgilaydi.

3. Ishtirok etish shartlari

3.1. Loyiha quyidagi toifalardagi arizachilar uchun mo‘ljallangan (aniq mezonlar Reglamentda belgilanadi): kichik biznes subyektlari, startap loyihalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, amaldagi biznesi yoki biznes g‘oyasiga ega jismoniy va yuridik shaxslar.

3.2. Ishtirokchi ariza topshirish chog‘ida quyidagilarni tasdiqlaydi:

- ko‘rsatilgan ma‘lumotlar to‘liq va haqqoniy ekanini;
- tegishli yuridik shaxs yoki jamoa nomidan ariza topshirish vakolatiga ega ekanini;
- taqdim etilgan biznes g‘oya yoki loyiha uchinchi shaxslarning mualliflik, savdo belgisi va boshqa huquqlarini buzmasligini;
- loyiha doirasida suratga olish, efirga uzatish, intervyu va boshqa media faoliyatida ishtirok etishga roziligini.

3.3. Loyiha bosqichlari, ishtirokchilar soni, saralash mezonlari, mentorlarga taqsimlash, efir jadvali va boshqa tashkiliy masalalar Reglamentda belgilanadi va Bank tomonidan o'zgartirilishi mumkin. Ishtirokchi bunday o'zgarishlar to'g'risida loyiha rasmiy axborot kanallari orqali xabardor qilinadi.

3.4. Arizani topshirish va ushbu ofertani aksept qilish Ishtirokchiga kastingda, efirda yoki final bosqichida albatta ishtirok etish huquqini kafolatlamaydi. Tanlov va saralash natijalari Bank, ZO'R TV va mentorlar tomonidan o'z ichki mezonlari asosida qabul qilinadi va qayta ko'rib chiqilmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollardan mustasno.

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. Bankning huquqlari

4.1.1. Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'liqligi, haqqoniyligi va mezonlarga mosligini tekshirish, zarur hollarda qo'shimcha hujjatlar talab qilish.

4.1.2. Shubhali, chalg'ituvchi, qonunga zid ma'lumotlar taqdim etilganda yoki Reglament talablariga javob bermaydigan arizalarni rad etish.

4.1.3. Loyiha formatini, bosqichlar sanasi va sonini, efir jadvalini, mentorlar va ekspertlarni, saralash mezonlarini o'zgartirish yoki loyihani to'xtatib turish yoki bekor qilish.

4.1.4. Loyiha doirasida olingan foto, video, audio va boshqa materiallardan Bankning marketing, PR va reklama maqsadlari uchun bepul, muddat va hudud bo'yicha cheklanmagan holda foydalanish (shu jumladan: teleefir, internet, ijtimoiy tarmoqlar, tashqi reklama va boshqalar).

4.1.5. Loyiha g'olibi va boshqa ishtirokchilarga grant va boshqa rag'batlantirish shartlarini o'zgartirish, grant berish tartibini Reglament va alohida shartnomalarda batafsil belgilash.

4.2. Bankning majburiyatlari

4.2.1. Loyihani amaldagi qonunchilik va Reglamentga muvofiq tashkil etish.

4.2.2. Arizalarni belgilangan tartibda qabul qilish va ko'rib chiqish.

4.2.3. G'olib aniqlangandan so'ng, grant berish tartibini alohida shartnoma yoki grant kelishuvida mustahkamlash.

4.2.4. Ishtirokchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini qonunchilik talablari doirasida himoya qilish va faqat Shartnoma va Reglamentda nazarda tutilgan maqsadlarda qayta ishlash.

4.3. Ishtirokchining huquqlari

4.3.1. Loyiha haqida to'liq va ishonchli axborot (Reglament, ishtirok shartlari, bosqichlar, muddatlar) bilan tanishish.

4.3.2. O'z biznes loyihasini Loyihada taqdim etish, mentorlar va ekspertlardan tavsiya va fikrlar olish (Loyihaga qabul qilinganda).

4.3.3. Loyiha doirasida belgilangan shakl va tartibda savollar berish va rasmiy axborot kanallari (veb-sayt, Telegram-bot, call-center va boshqalar) orqali javob olish.

4.4. Ishtirokchining majburiyatlari

4.4.1. Ariza va ilova hujjatlarida to'liq, haqqoniy va dolzarb ma'lumotlarni taqdim etish.

4.4.2. Loyiha doirasida belgilangan muddat va jadvalga rioya qilish, suratga olish va efir jarayonlarida intizomli ishtirok etish.

4.4.3. Mentorlar, loyiha jamoasi, telekanal va boshqa ishtirokchilarga nisbatan hurmatli muomala qilish, odob-axloq me'yorlariga rioya qilish, bank va telekanal obro'siga putur yetkazadigan xatti-harakatlardan tiyilish.

4.4.4. Uchinchilar huquqlariga (mualliflik, savdo belgisi, shaxsiy hayot daxlsizligi va boshqalar) rioya etish, zarur hollarda hamkorlar va jamoa a'zolaridan yozma roziliklarni taqdim etish.

4.4.5. Loyiha doirasida taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlar saqlanishi, shuningdek teleefirga uzatilishi bilan bog'liq qonunchilik talablariga rioya qilish.

5. Intellektual mulk va tasvirdan foydalanish

5.1. Ishtirokchi o'z biznes loyihasi, taqdimot materiallari, logotip, firma nomi, shuningdek, loyiha doirasida olingan foto, video, audio yozuvlar va boshqa kontent yuzasidan Bank va ZO'R TV telekanaliga bepul, muddatsiz, hudud bo'yicha cheklanmagan, oddiy (noyoqlik) litsenziya asosida quyidagi huquqlarni beradi: efirga uzatish, qayta efirga uzatish, internet va OTT-platformalarda joylashtirish, ijtimoiy tarmoqlarda, reklama roliklarida, tashqi reklama vositalarida va boshqa kommunikatsiya kanallarida foydalanish, loyiha bo'yicha hisobot, prezentatsiya va PR materiallarda foydalanish.

5.2. Ishtirokchi o'zining tasviri (yuz qiyofasi), ovozi, familiya, ism-sharifi, lavozimi, biznesi nomi va boshqa identifikatsiya qiluvchi ma'lumotlarni teleefir, internet va reklama materiallarida cheklovsiz ishlatilishiga rozilik bildiradi.

5.3. Ishtirokchi Bank va ZO'R TV tomonidan ishlab chiqilgan "BRB Lift" nomi, logotipi va boshqa brend elementlariga nisbatan hech qanday huquq talab qilmaydi.

6. Shaxsga doir ma'lumotlar va maxfiylik

6.1. Ishtirokchi ushbu ofertani aksept qilish orqali o'zining hamda loyiha doirasida ko'rsatilgan jamoa a'zolari va vakillarining shaxsga doir ma'lumotlarini (F.I.Sh., telefon raqami, elektron pochta manzili, TIN, STIR, lavozimi, fotosuratlar va boshqalar) Bank tomonidan arizalarni qabul qilish va qayta ishlash, saralash va baholash, loyiha bo'yicha aloqa va xabarnoma yuborish, hisobot va statistik maqsadlarda qayta ishlashga rozilik bildiradi.

6.2. Bank shaxsga doir ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq himoya qiladi va faqat Shartnoma hamda Reglamentda ko'rsatilgan maqsadlarda, shuningdek qonun bilan talab etilgan hollarda uchinchi shaxslarga taqdim etishi mumkin (telekanal, loyiha hamkorlari, vakolatli davlat organlari va boshqalar).

7. Tanlov natijalari, grant va soliqlar

7.1. Loyiha g'olibi mentorlar, investorlar va Bank vakillaridan iborat hay'at tomonidan Reglamentda belgilangan mezonlar asosida aniqlanadi. Hay'at qarorlari yakuniy bo'lib, qayta ko'rib chiqilmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar mustasno.

7.2. G'olibga 500 000 000 (besh yuz million) so'm miqdorida grant (moliyaviy ko'mak) ajratilishi nazarda tutiladi. Grantni berish tartibi, maqsadli yo'nalishi va nazorat mexanizmlari alohida grant shartnomasi bilan belgilanadi.

7.3. Grant va boshqa rag'batlantirish turlariga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lash tartibi amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Zarur hollarda Bank qonunchilik talabiga muvofiq soliq va boshqa majburiy to'lovlarni manbada ushlab qolish huquqiga ega.

8. Javobgarlik va javobgarlikni cheklash

8.1. Ishtirokchi taqdim etgan noto'g'ri, chalg'ituvchi yoki soxta ma'lumotlar, uchinchi shaxslar huquqlarining buzilishi, shuningdek Shartnoma va Reglament talablariga rioya etmaslik oqibatlaridan kelib chiqadigan barcha zarar va da'volar uchun mustaqil ravishda javobgar bo'ladi.

8.2. Bank Loyiha doirasida Ishtirokchini tanlab olinmasligi, efirga chiqarilmasligi, finalga chiqmasligi, teleefir jadvalidagi o'zgarishlar, texnik nosozliklar, aloqa uzilishlari, Telegram yoki boshqa platformalardagi uzilishlar bilan bog'liq bevosita va bilvosita zararlar uchun javobgar emas, bundan qonunchilikda bevosita nazarda tutilgan hollardan tashqari.

8.3. Bank uchinchi shaxslar (telekanal, texnik yetkazib beruvchilar, internet provayderlar va boshqalar) tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati bo'yicha javobgar emas.

9. Fors-major

9.1. Tomonlar o'zlarining Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajara olmasalar, agar bu holatlar fors-major (tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, davlat organlarining qarorlari, texnogen avariylar, keng ko'lamli uzilishlar va boshqalar) natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

9.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan tomon, imkon qadar qisqa muddatda boshqa tomonni mazkur holatlar va ularning taxminiy davomiyligi haqida xabardor qilishi lozim.

9.3. Fors-major holatlari tugaganidan keyin Tomonlar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni qayta tiklash yoki Shartnomani bekor qilish masalasini kelishuv asosida hal qiladilar.

10. Nizolarni hal qilish tartibi

10.1. Shartnoma bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizolar, avvalo, muzokaralar va yozma murojaatlar orqali hal etishga harakat qilinadi.

10.2. Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida ko'rib chiqiladi.

10.3. Shartnomaga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini qo'llash belgilangan.

11. Oferta amal qilish muddati va aksept tartibi

11.1. Ushbu ommaviy oferta Bank tomonidan Telegram-bot va loyiha veb-saytida joylashtirilgan paytdan e'lon qilingan vaqtda kuchga kiradi hamda Bank tomonidan qaytarib olinganiga qadar amal qiladi.

11.2. Ishtirokchi tomonidan Telegram-bot orqali Shartnoma matni bilan tanishish, "Roziman" yoki "Tanishdim va qabul qilaman" tugmasini bosish va arizani to'ldirib yuborish ushbu ofertani to'liq va hech qanday istisnosiz qabul qilish (aksept) hisoblanadi.

11.3. Aksept qilingan paytdan boshlab elektron shaklda tuzilgan Shartnoma Bank va Ishtirokchi uchun yuridik kuchga ega bo'ladi va tomonlarning majburiyatlarini yuzaga keltiradi.

12. Tomonlar rekvizitlari

Bank:

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB

Manzil: _____

STIR: _____

Hisob raqami: _____

Bank kodi: _____

Telefon: _____

Veb-sayt: www.brb.uz

Ishtirokchi:

Ishtirokchi Telegram-botda ariza topshirish chog'ida ko'rsatgan ma'lumotlar (F.I.Sh. / yuridik shaxs nomi, STIR, manzil, aloqa ma'lumotlari va boshqalar) bo'yicha identifikatsiya qilinadi.